

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI

Isakova Shoxsanam Nuriddin qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi "Sud-huquqiy faoliyat"

yo'nalishi 1-bosqich 32-guruh o'quvchisi

Аннотация:

Ushbu maqolada muallif tomonidan mamlakatimizda aholini bandligini ta'minlash, mehnat huquqini himoya qilish borasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar xususida so'z yuritilgan.

Калит so'zlar: aholi bandligini ta'minlash, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlari, ishga joylashish huquqi, ishga joylashtirish bo'yicha davlat kafolatlari, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari.

Аннотация:

В данной статье речь идет о нормативных правовых актах, принятых автором в целях обеспечения занятости населения, защиты трудового права в нашей стране.

Ключевые понятия: обеспечение занятости населения, свободного выбора профессии, справедливых условий труда, права на трудоустройство, государственных гарантий трудоустройства, социально нуждающихся категорий населения.

Abstract:

This article deals with the normative legal acts adopted by the author on the provision of employment of the population in our country, the protection of labor rights.

Key concepts: ensuring employment, choosing a free profession, fair working conditions, the right to employment, state guarantees for employment, socially disadvantaged categories of the population.

Mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish jarayonida davlatning eng muhim vazifalaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinligini kamaytirish,



mavjud muammolarni ehtiyot choralari hisobiga yumshatish va aholi turmush darajasini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda aholining turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib, bunda aholining ish bilan ta'minlanish darajasini oshirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasida "aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlarning daromadlarini oshirish, fan va uzluksiz ta'limni rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ular bilan aholini qamrab olishni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish" ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda bevosita muhtaram Yurtboshimiz rahnamoliklarida aholini bandligini ta'minlash, munosib ish o'rinlarini yaratish, shu orqali aholiga farovon turmush sharoitlarini ta'minlash borasida chuqur o'ylangan tub islohotlar, ijobiy say'-harakatlar amalga oshirilayotganligi barchani kelajakka katta umid va ishonch bilan qarashga undaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda aynan aholining bandligini, ehtiyojmand toifalarni ish bilan ta'minlash, ularning erkin kasb tanlash va adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, mehnatga haq to'lash, kafolatlangan mehnat ta'tillari, mehnat huquqiy munosabatlarda xodimlarning huquqlarini samarali himoya qilish qilish mexanizmlarini takomillashtirishga oid normativ hujjatlarimizning yangi tahrirda yangi normalar bilan boyitilib qabul qilinayotganligi juda quvonarlidir.

Bundan tashqari mehnat bozorida teng raqobatlashishga qodir bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bir qator toifalari, jumladan, ta'lim muassasalari bitiruvchilari mavjud. Ular tanlagan kasbi yoki ixtisosligi bo'yicha ta'lim muassasalarida muayyan nazariy bilimlarni egallaganligiga qaramasdan zarur malaka va mehnat ko'nikmalariga ega bo'lmaganliklaridan mehnat bozorida raqobatbardosh emas. Shu sababli ham yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, jumladan, ish joyiga ega bo'lishlari, ularni jamiyatda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish o'z-o'zidan Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagiga qaratilayotgan strategik maqsadlaridan biridir.

Mamlakatimizda aholi bandligi ta'minlash hamda mehnat huquqiy munosabatlarini tartibga soladigan bir qator normativ hujjatlar qabul qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunining maqsadi bevosita aholi



bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat¹ ekanligi, belgilanib qonunda asosiy tushunchalar, aholi bandligini ta'minlashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, davlat va hokimiyat organlarining, mahalliy organlarning, xususiyl bandlik tashkilotlarning ishtiroki hamda bu boradagi vakolat va vazifalari batafsil ko'rsatib berildi.

Yangi Mehnat kodeksi III-bo'limi ishga joylashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur bo'lim 10-11-boblarni o'z ichiga olgan. Ushbu bo'limda ishga joylashish huquqi, ishga joylashtirish bo'yicha davlat kafolatlari, aholining ijtimoiyl ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish sohasidagi qo'shimcha kafolatlar, ish beruvchining bandlik va ishga joylashtirish sohasidagi majburiyatlari, xodimlarni ommaviyl ravishda ishdan bo'shatish chog'idagi kafolatlar, ish o'rinlarining belgilangan eng kam soni hisobiga ishga joylashtirish, ish o'rinlarining belgilangan eng kam soni hisobiga ishga joylashtirish, taklif etilgan shaxslarga ishga joylashtirish sohasidagi qo'shimcha kafolatlar, ish beruvchi alohida asoslar bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilgan xodimlarni qayta ishga qabul qilish tartibi bilan bog'liq masalalarning huquqiy asoslarini o'zida ifoda etgan normalar belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi 2020 yil 20 oktyabrdagi O'RQ-642-sonli Qonunning 44-moddasiga asosan, o'n olti yoshdan to pensiya ta'minoti huquqini olish yoshigacha bo'lgan, haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, ishga joylashishda ko'mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ushbu organlar tomonidan ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar mustasno) ishsizlar deb e'tirof etiladi.²

Demak, Yangi Mehnat kodeksiga muvofiq, har kimga o'zining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish bo'yicha mutlaq huquq tegishli bo'lib, har kim ish beruvchiga bevosita murojaat qilish yoki mehnat organlarining

¹O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi 2020 yil 20 oktyabrdagi O'QR-642-son Qonuni.

²O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi 2020 yil 20 oktyabrdagi O'QR-642-son Qonuni.



bepul ko‘magi orqali, shuningdek xususiy bandlik agentliklarining xizmatlari vositasida ish joyini erkin tanlash huquqiga egadir.

Davlat endi aholining:

- bandlik turini, shu jumladan turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;
- ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan, qonunga xilof ravishda boshqa ishga o‘tkazishdan, xodimni ishdan chetlashtirishdan va mehnat shartnomasini bekor qilishdan himoyalashni;
- maqbul keladigan ish tanlashga va ishga joylashishga bepul ko‘maklashishni;
- kasb egallashda va ishga ega bo‘lishda, mehnat qilish va bandlik sharoitlarida, mehnatga haq to‘lashda, xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishda har kimga imkoniyatlar tengligi yaratilishini;
- ish qidirayotgan shaxslarni va ishsizlarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga ko‘maklashishni;
- mehnat organlarining taklifiga ko‘ra ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko‘chib ketish munosabati bilan qilingan xarajatlar kompensatsiya qilinishini;
- haq to‘lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etish imkoniyatini kafolatlaydi.

Ishga joylashtirish sohasidagi qo‘shimcha kafolatlar qo‘shimcha ish o‘rinlarini, ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnat qilishi uchun tashkilotlarni tashkil etish, maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, ushbu toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash yo‘li bilan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar orqali ta‘minlanadi.

Yangi mehnat kodeksining 100-moddasi endi mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilinganda o‘rtacha oylik ish haqini ishga joylashtirish davrida saqlab qolish kafolatlari deb nomlanib, ushbu moddada mehnat shartnomasi quyidagi asoslar bo‘yicha bekor qilingan taqdirda, ish qidirish davrida o‘rtacha oylik ish haqining ishdan bo‘shatish nafaqasi hisobga olingan holda, biroq ko‘pi bilan ikki oyga saqlanib qolishi xodimlar uchun kafolatlanishi belgilab qo‘yildi. Buning uchun asoslar sifatida quyidagi holatlar e‘tirof etilgan: xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashni davom ettirishni rad etganligi; xodim ish beruvchi bilan birga ishlash uchun boshqa joyga ko‘chishni rad etganligi; xodim sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra tibbiy xulosaga muvofiq sog‘lig‘ining holati bo‘yicha o‘ziga qarshi ko‘rsatma mavjud bo‘lmagan boshqa ishga o‘tishni rad etganligi yoki ish beruvchida tegishli ish mavjud emasligi; texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning



o'zgarishi sababli tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o'zgarganligi, ishlar (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi; tashkilotning (uning alohida bo'linmasining) o'z ta'sischi (ishtirokchilari) qaroriga ko'ra tugatilganligi yoxud ta'sis hujjatlari bilan shunga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs organining qaroriga ko'ra tugatilganligi; bajarayotgan ishiga malakasi yetarli emasligi oqibatida noloyiq ekanligi; shu ishni ilgari bajarib kelgan xodimning ishga tiklanganligi; sudning tashkilotni tugatish to'g'risidagi qarori qonuniy kuchga kirganligi.

So'zimiz yakunida aytish lozimki, yangi qabul qilingan Mehnat kodeksida xodimlarning mehnat huquqiy munosabatlarda huquqlarining muhofaza qilinish mexanizmlari anchagina kengaytirilgan va takomillashtirilgan, bunda albatta ularning o'z huquqlaridan oqilona foydalanishlari uchun qonun normalarini chuqurroq o'rganishlari talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.: “O'zbekiston”, 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. –T: “Yuridik adabiyotlar Publish”, 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to'g'risida”gi 2020 yil 20 oktyabrdagi O'QR-642-son Qonuni.

